

## QUROLLI KUCHLAR HARBIY XIZMATCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY-TARIXIY TAHLILI

Tursunov Kamariddin G'ulomovich  
*Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada harbiy xizmatchining shaxsi, uning kompetentligi, harbiy xizmatchining harbiy xizmatga moslashuv jarayonining mohiyati va moslashuvning ijtimoiylashuv jarayoni bilan aloqasi yoritib berilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *harbiy xizmatchilarning kompetentligi, kasbiy faoliyatga moslashuv ijtimoiylashuv jarayoni, burchga sodiqlik, samarali moslashuv, kasbiy ong.*

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi ularni kompetentligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kompetentlik esa komil insonni shakllanishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning kompetentligi bevosita huquqiy, psixologik, pedagogik, kibernetik bilimlar bilan chambarchas bogʻliq. Kompetensiya soʻziga pedagogika va psixologiyada koʻplab taʼriflar berilgan, biroq kompetensiya biz oʻrganayotgan obyektning predmeti hisoblanmaydi. Har bir harbiy xizmatchining kompetentligi bevosita moslashuv, yaʼni kasbiy faoliyatga moslashuv

jarayoni bilan bogʻliqdir. “Jarayon” – deganda maʼlum muddatni oʻz ichiga oladigan va shu muddatda harbiy xizmatchining tarbiyalanadigan, shakllanadigan davri tushuniladi.

“Jarayon” soʻzi – arab tilidan olingan boʻlib, oqib borish, sodir boʻlish, ish harakat, voqea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji maʼnosida tushuniladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati bir qancha jarayonlardan iborat va bu jarayonlar harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga yoʻnaltiradi va xizmatga moslashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi bizning nazarimizda harbiy kiyim kiygan kundan boshlanadi. Chunki, avvalo, harbiy kiyimga, keyin muhitga va faoliyatga moslashadi. Bu uchta omil harbiy xizmatchilar kasbiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, kasbiy moslashuv, avvalo, har bir harbiy xizmatchining burchiga, vazifasiga boʻlgan munosabatlarida namoyon boʻladi. Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati jarayonida qay darajada umumharbiy Nizom talablariga boʻlgan munosabatlarida namoyon boʻladi.

Harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatga tez moslashib keta olmaydi. Buning uchun vaqt kerak, vaqt esa kasbiy bilimlarni bilishga, ko'nikma va faoliyatni anglashga xizmat qilishi lozim. Masalan, amaliyotdan shuni guvohi bo'lamizki, harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatga moslashishlari uchun o'quv yig'ini o'tashadi, ushbu o'quv yig'ini ham bevosita harbiy xizmatchilarni faoliyatga moslasha olishi yoki moslasha olmasligini aniqlashga yordam beradi. Kasbiy faoliyatga moslashuv keng tushuncha bo'lib, harbiy xizmatchilarning faoliyatga moslashuvi har bir harbiy xizmatchining, avvalo, o'ziga keyin esa, ularni tarbiyalovchi subyektlarga ham bevosita va bilvosita bog'liq. Kasbiy moslashuvda har bir harbiy xizmatchining kasbiy, huquqiy, psixologik dunyoqarashi ham muhim hisoblanadi. Kasbiy faoliyatga moslashuvning nazariy jihatlarini o'rganar ekanmiz, shuni yaxshi bilishimiz kerakki, bu jarayon komil insonni shakllanishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi birinchidan, o'zini ozod, erkin, davlat, xalq xizmatiga bag'ishlayotganini anglashga yordam beradi. Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarning Vatanni, Prezidentimizni va o'ziga xos milliy insoniy qadriyatlarni himoya qilishga undaydi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi bevosita "ijtimoiylashuv" atamasi bilan ham bog'liq. "Ijtimoiylashuv" bir ma'nodagi talqinga ega emas, mazkur atama ba'zi holatlarda "shaxs rivojlanishi" tushunchasining sinonimi kabi o'rganilsa, boshqa holatlarda esa "tarbiya" atamasi kabi talqin qilinadi. Undan tashqari ijtimoiylashuvga sotsiologiyada ham ta'rif berilgan. "Ijtimoiylashuv jarayonida har bir harbiy xizmatchi o'zini anglash, mustaqil fikrlash va harakat qilishga layoqat orttiradi" deyiladi. Ijtimoiylashuv so'zi,

demak, bevosita moslashuv bilan bog'liq. Kim moslashadi? Avvalo, irodali tarbiyali harbiy xizmatchi muhitga, vaziyatga moslasha oladi. "Tarbiya" so'zi qaysi ma'noda ishlatilishidan qat'iy nazar bevosita va bilvosita moslashuv, ijtimoiylashuv so'zlari bilan bog'liq. Birinchi tomoni, ijtimoiylashgan har bir harbiy xizmatchi kasbiy vazifalarni bajarishga faol kirisha oladigan, kasbiy tajribalarni o'zlashtira oladigan; ikkinchi tomoni, harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda faol ishtirok eta oladigan, o'z ta'sirini boshqalarga o'tkaza oladigan, o'rnak bo'la oladigan harbiy xizmatchilar tushuniladi.

Ijtimoiylashuvni, psixolog A.Urbanovich "Biz tarbiyalash ma'nosida tushunishimiz mumkin emas", deydi. Bizningcha, ushbu fikr juda ham to'g'ri emas, chunki ijtimoiylashuvning o'zi harbiy xizmatchi faoliyatini ijobiy moslashuvga yo'naltirish ma'nosida tushuniladi, ijobiylik esa bevosita tarbiyaning, ta'limning va ijobiy o'zaro munosabatlarning mahsulidir.

Kasbiy faoliyatga moslashuv bevosita kasbiy ong, kasbiy madaniyatning rivoji bilan uzviy aloqadorlikda shakllanadi va bu bir tomondan harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatiga moslashuvi uning kompetentligi, avvalambor, individual xususiyatiga bog'liq bo'lsa, yuqoridagi fikrimizda aytganimizdek, irodasi bilan bevosita va bilvosita bog'liqlikda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan esa har bir harbiy xizmatchini kasbiy faoliyatga moslashuviga davlatning yordamisiz, qo'llab quvvatlashisiz erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy fanlarda, "moslashuv" istihola tushunchalariga ta'riflarni o'nlab topish mumkin. Maqolani yozishda o'z oldimizga mazkur tushunchani har tomonlama chuqur tahlil etish maqsad qilib qo'yilgan, ammo bu tushunchani birgina maqolada yoritib berish imkoni yo'q albatta. Lekin bir nechta tushunchaga to'xtalib o'tamiz, chunki, maqola asosan muammoning nazariy tomonlarining tahliliga qaratilgan. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatiga moslashuvi harbiy xizmatchilarning faoliyatga samarali moslashuvi va tarbiyalanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, pedagogik, psixologik, huquqiy xatti-harakatlar, ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish va kasbiy faoliyatga qo'llash va boshqa harbiy xizmatchilarni ham Nizom talabi doirasida xizmat qilishni talab qiladigan harbiy xizmatchilarni tushunamiz. "Moslashuv" atamasi bevosita kasbiy faoliyatga nisbatan qo'llanilishi ham mumkin, ikkinchi tomondan esa huquqiy jihatdan moslashuv tushunchasi bilan ham bog'liq. Huquqiy jihatdan kasbiy faoliyatga moslashuv huquqiy madaniyatni shakllantirish tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Lekin huquqiy jihatdan kasbiy faoliyatga moslashuv biz o'rganayotgan muammoning bir qismi hisoblanadi va bizni o'rganish obyektimizga taalluqli emas.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi barcha ijtimoiy fanlar singari harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga moslashuv muammosini pedagogika nazariyasining bahs mavzusiga aylantirmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2006. – 73-b.
2. Entonix Giddens. Sotsiologiya. – Toshkent. 2002, 110-bet.
3. Urbanovich A.A. Psixologiya upravleniya. Ucheb. posobiye. – M., Xarvest. 2007. – 604-bet.
4. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. World Scientific News, (143), 115-126.
5. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.